


Qashqadaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik

E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 60,1 % tashkil etdi.
- 5154 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,7 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-dekabrida 5154 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 marta ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (31,1 %), sanoat tarmog'ida (22,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (18,0 %), qurilish sohasida (11,4 %), yashash va ovqatlanishda (6,3%), tashish va saqlashda (2,8 %) tashkil etilgan.




**Qashqadaryo viloyatida 2019 yilning yanvar-dekabrida kichik
tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirma soni	birlik	16218	20304	4086
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirma	birlik	2365	5154	2789
YaHM	%	63,7	60,1	-3,6
Sanoat	%	101,0	129,9	28,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	96,6	101,7	5,1
Investitsiya	%	103,8	3,0 m.	198,2
Qurilish	%	123,3	113,9	-9,4
Savdo	%	102,9	109,4	6,5
Xizmatlar	%	104,3	109,0	4,7
Yuk tashish	%	104,8	104,9	0,1
Yuk aylanmasi	%	102,9	103,8	0,9
Yo'lovchi tashish	%	104,8	103,4	-1,4
Yo'lovchi aylanmasi	%	103,2	102,8	-0,4
Eksport	%	118,6	122,0	3,4
Import	%	185,3	2,2 m.	37,9

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar
(birlikda)**


	yanvar-dekabr 2018 y	yanvar-dekabr 2019 y
Qashqadaryo viloyati	2365	5154
Qarshi sh.	556	983
Shahrisabz sh.	127	324
<i>tumanlar</i>		
G'uzor	98	241
Dehqonobod	85	211
Qamashi	152	334
Qarshi	182	421
Koson	163	313
Kitob	156	330
Mirishkor	77	232
Muborak	95	153
Nishon	107	215
Kasbi	80	338
Chiroqchi	237	418
Shahrisabz	89	317
Yakkabog'	161	324

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2019 yilda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Qarshi shahrida - 983 ta, Qarshi tumanida – 421 ta, Chiroqchi tumanida - 418 ta, Kasbi tumanida – 338 ta, Yakkabog' tumanida – 324 ta, Shahrisabz shahrida – 324 ta, Kitob, Shahrisabz, Koson, Mirishkor, Qamashi, Nishon, G'uzor tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 330-241 ta oralig'ini tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Muborak (153 ta), Dehqonobod (211 ta) tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, foizda**



2019 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Qarshi shahrida -19,1 %, Qarshi - 8,2 %, Chiroqchi tumanida - 8,1%, Kasbi – 6,6 %, Qamashi – 6,5%, Kitob – 6,4%, Yakkabog'-6,3 %, Shahrisabz shahri – 6,3 %, Shahrisabz - 6,2 %, Koson, Mirishkor, G'uzor tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 6,1-4,5 foizni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Nishon, Dehqonobod, Muborak tumanlari 4,2-3,0 foiz atrofida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr
Jami	2365	5154
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	457	928
Sanoat	499	1151
Qurilish	431	589
Savdo	494	1607
Tashish va saqlash	85	146
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	125	329
Axborot va aloqa	31	52
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	94	110
Boshqa turdagi xizmatlar	146	242

2019 yil yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p **savdoda** 1607 ta, shuningdek :

Sanoatda - 1151 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida -928 ta.;

Qurilishda - 589 ta.;

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 329 ta.;


Tashish va saqlash – 146 ta.;

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda –110 ta.;

Axborot va aloqa sohasida - 52 ta.;


Boshqa turdagi xizmatlar–242 ta.

Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda)




Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi savdoda – 31,2 foiz, sanoatda - 22,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 18,0 foiz, qurilishda – 11,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 6,4 foiz, tashish va saqlashda - 2,8 foiz, axborot va aloqada - 1,0 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 2,1 foiz va boshqa turdagi xizmatlarda – 4,7 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Agar, 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,2 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 11,7 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan -1,5 birlikka kamaydi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga




Quyida, 2019 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 23,2 %, qurilishda – 85,8 %, investitsiyada – 29,7 %, savdoda – 89,5 %, eksportda – 38,6 %, importda - 88,7 % va xizmatlar sohasidagi - 69,4 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


2019 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi



**Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikning
YaHMDagi ulushining pasayishi dinamikasi
yanvar-dekabr holatiga, %**



**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan %da)**



Qashqadaryo viloyatida 2019 yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qashqadaryo viloyati	23,2	85,8	69,4	29,7
Qarshi sh.	64,6	84,3	47,9	21,9
Shahrisabz sh.	54,0	63,8	54,7	64,4
<i>tumanlar</i>				
G'uzor	2,2	97,6	85,6	10,0
Dehqonobod	12,2	100,0	99,8	13,6
Qamashi	93,2	99,3	97,6	79,6
Qarshi	28,8	99,8	97,3	28,2
Koson	43,2	48,0	98,2	76,2
Kitob	100,0	99,4	96,2	85,1
Mirishkor	78,7	100,0	85,4	79,1
Muborak	1,7	85,1	63,8	5,5
Nishon	11,2	100,0	94,9	28,8
Kasbi	59	95,8	98,1	94,1
Chiroqchi	79,4	100,0	99,5	68,8
Shahrisabz	79,5	100,0	94,2	59,6
Yakkabog'	79,7	80,6	92,9	65,7


Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (100,0 %), Qamashi (93,2 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Dehqonobod (100,0 %), Nishon (100,0 %), Mirishkor (100,0 %), Chiroqchi (100,0%) va Shahrisabz (100,0%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Dehqonobod (99,8 %), Chiroqchi (99,5 %), Koson (98,2 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada Kasbi (94,1 %), Kitob (85,1 %), Qamashi (79,6 %), Mirishkor (79,1 %) va Chiroqchi (68,8 %) tumanlari tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida 2019 yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik (biznes)ning tarmoqlar bo'yicha ulushi, (%)



**Kichik tadbirkorlik
sub'ektlari
tomonidan**

2019 yil yanvar-dekabr holatiga



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4769,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 23,2 %) yoki 2018 yilning yanvar– dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 129,9 % ni tashkil qildi;

6995,4 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 29,7 %) o`zlashtirildi va 2018 yilning yanvar— dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 302,1 % ni tashkil qildi;



4001,1 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 85,8 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar– dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 113,9 % ni tashkil qildi;

6066,2 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 69,4 %), 2018 yilning yanvar—dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 109,0 % ni tashkil qildi;



Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 96,8 % 10176,1 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 109,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

125,7 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 35,9 %) miqdorida mahsulotlar (Tovar va xizmatlar) eksport qilindi.




Avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,8 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 85,1 %) ko`payishi ta`minlandi;

yo`lovchi aylanmasining esa 2,8 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,9 %) ko`payishi ta`minlandi;




Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat) larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019 yil yanvar dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Qamashi, Kitob, Mirishkor, Kasbi, Yakkabog' tumanlarida – 100 %ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (1699,5 mlrd. so'm), Kitob (373,7mlrd. so'm) va Yakkabog' (283,9mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod (66,3 mlrd. so'm) va G'uzor tumanlarda (99,8 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2019 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat maxsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi (100,0%), Kitob tumanida kuzatildi .


2019 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi sh. (2340,6 mlrd.so'm), Koson (1010,8 mlrd.so'm), Chiroqchi (922,2 mlrd.so'm) va Qamashi (710,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Qurilishda, Koson (150,0 %), Qarshi sh. (134,2 %), Muborak (118,5 %) tumanlari tashkil etadi.

2019 yil yanvar-dekabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`shish sur`ati



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Qarshi shahri (2128,9 mlrd.so'm), Koson (449,2 mlrd.so'm) va Shaxrisabz (443,5 mlrd.so'm), tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Qashqadaryo viloyatida 2019 yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil IV - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 71 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 63,8 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 31,9 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 65,3,0 % va 31,1 %, xizmatlar sohasida – 62,6 % va 32,4 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 49,4,0 % va 38,8 %, sanoatda – 69,9 % va 26,5 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 3,5 %, qurilishda – 4,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 11,8 %, xizmatlarda – 5,0 % va savdoda – 3,7 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil IV–chorak uchun,%




Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 88,5 sanoat korxonalari, 87,1 % – savdo, 84,5 % – xizmatlar, 72,9 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 88,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %




Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

2019 yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil IV-chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV-choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun qulay iqtisodiy ahvol joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ularning bahosi -4,9 punktga, qurilish korxonalarida mos ravishda -0,9 punktga, xizmatlar sohasida -3,6 punktga va savdo korxonalarida 0,4 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, barcha kuzatilgan korxonalarda umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV-choragida III-chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 1,9 punktga, qurilish korxonalarida mos ravishda -0,9 punktga, hamda savdo korxonalarida 0,4 punktga, xizmatlar sohasida 3,7 punktga o'sdi.

Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarining 2019 yil III, IV-choragi bo'yicha iqtisodiy ahvolni baholash, %



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV-choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 11,9 punktga, savdo 3,2 korxonalari punktga, sanoat korxonalari 16,6 punktga, xizmatlar sohasi uchun qulay iqtisodiy holat yaxshilandi va ularning bahosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,9 punktga oshdi.


Shu bilan birga, boshqa faoliyat korxonalari o'rtasida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV-choragida iqtisodiy faoliyatning sanoat sohasida -3,2 punktga, xizmatlar sohasi -8,3 punktga, savdo sohasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,7 punktga iqtisodiy ahvoli qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qulay deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018 – 2019 yillar IV-chorakdagi iqtisodiy ahvolini baholash, %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi Sanoat Qurilish Savdo Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan korxonalari ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari -7,4 punktga, qurilishda -5,2 punktga kamaydi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil III va IV choraklardagi iqtisodiy ahvolidning yaqin uch oyda baholanishi %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV-choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy ahvoli yaxshilanishiga ishongan faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha o'sgan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda savdo sohasi -3,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalar -12,8 punktga, sanoat korxonalar -10,3 punktga, xizmatlar sohasi 0,6 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalar sohasida -3,8, sanoat sohasida -1,8 punktga, qurilishda 1,4, savdo sohasida 3,0 punktga va , xizmatlar sohasi 1,7 ulushi kuzatildi.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2018 - 2019 yillar IV-chorakdagi iqtisodiy ahvolidan yaqin uch oyda baholanishi,%






2019 yil IV-choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 71 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 16 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 22,%), qurilish – 9 ta (12,7%), savdo – 22 ta (31,0%) va xizmatlar – 12 ta (16,9%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 12 ta (16,9%).


2019 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



2019 yil III-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil III-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning IV-choragida qulay iqtisodiy holat xizmatlar sohasida yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ishlarning yaxshilanishi va ularning bahosi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida -17,8 punktga, qurilishda -6,7 punktga, savdo korxonalarida -22,7 punktga, sanoat sohasida mos ravishda -17,3 punktga kamaydi.

Shu bilan birga, Joriy yilning IV-choragida III-chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari korxonalarida sezilarli darajada kamayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV-choragida shu yilning III-choragiga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy ahvolni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida -2,2 punktga, sanoatda 1,0 punktga, qurilishda 26,6 punktga, savdoda 10,6 punktga o'sishi kuzatildi.

2019 yil III, IV-choraklardagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy ahvolini baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning IV-choragida sanoat korxonalari -25,0 punktga, savdo korxonalari -25,7 punktga va xizmatlar sohasi korxonalarining qulay iqtisodiy holati yaxshilandi va ularning bahosi 2018 yilning IV-choragiga nisbatan -30,0 punktga ko'paydi.

Shu bilan birga, Joriy yilning IV-choragida 2018 yilning IV-choragiga nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushi kamaydi.

2018 - 2019 yillar IV-chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy ahvolini baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 yilning IV-choragi joriy yilning o'tgan choragi bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilashga ishongan o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari ulushi 6,6, qurilish korxonalari ulushi -37,7 punktga, savdo korxonalari ulushi - 6,1 punktga, xizmatlar sohasi korxonalari ulushi - 5,6 punktga kamaydi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishsiz qoladi deb hisoblaydigan korxonalar barcha faoliyat turlari bo'yicha ulushi kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi kamaydi.

2019 yil III, IV-choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 yilning IV-choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 15,0 punktga, sanoat korxonalari 2,7 punktga, qurilish korxonalari - 29,0 punktga, savdoda 4,2 punktga oshdi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblaydigan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 3,4 punktga oshdi.

Qolgan faoliyat turlari bo'yicha ulushi kamayganlar: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari - 8,3 punktga; sanoat korxonalari - 2,7 punktga; qurilish korxonalari 29,0 punktga; savdoda - 4,2 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi kamaydi.

2018 - 2019 yil IV-choragida yangi tashkil etilgan korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %



**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: E.Begmurodov

Tel: (0371) 230-83-90